



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 358 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA


Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Agrosanoat klasterlarida xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olishni rivojlantirish	347
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	



AHOLI TURMUSH DARAJASINI DINAMIK KONTEKSTLI NORMALLASHTIRISH VA MOSLASHUVCHAN VAZNLAR USULI ORQALI BAHOLASH

Xolto'rayev Islom Ilhomovich

Termiz davlat universiteti,
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) 2-kurs magistranti
ORCID: 0009-0009-8221-7222

Ilmiy rahbar:

Ollokulova Feruza Mansurovna

I.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasini baholash uchun yangi usulni taklif etadi. Bu usul dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlarga asoslanadi. An'anaviy usullardan farqli o'laroq, taklif etilayotgan yondashuv mahalliy sharoitlarning o'zgarishini hisobga oladi hamda Asosiy Komponentlar Tahlili (PCA) yordamida statistik ma'lumotlarga asoslangan vaznlarni aniqlaydi. Natijalar ushbu usulning moslashuvchanligi va ishonchliligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: inson taraqqiyoti va aholi turmush darajasi, dinamik normallashtirish, moslashuvchan vaznlar, Asosiy Komponentlar Tahlili (PCA), Turmush Darajasi Indeksi (TDI), statistik tahlil.

Abstract: This article proposes a novel method for assessing human progress and population living standards, based on dynamic contextual normalization and adaptive weighting. Unlike traditional approaches, the proposed method accounts for variations in local conditions and employs Principal Component Analysis (PCA) to determine weights derived from statistical data. The results highlight the flexibility and reliability of this approach.

Key words: Human progress and population living standards, dynamic normalization, adaptive weighting, Principal Component Analysis (PCA), Living Standards Index (LSI), statistical analysis.

Аннотация: В данной статье предлагается новый метод оценки человеческого прогресса и уровня жизни населения, основанный на динамической контекстной нормализации и адаптивных весах. В отличие от традиционных подходов, предложенный метод учитывает изменения местных условий и определяет веса на основе статистических данных с использованием анализа главных компонент (PCA). Результаты демонстрируют гибкость и надежность этого подхода.

Ключевые слова: Человеческий прогресс и уровень жизни населения, динамическая нормализация, адаптивные веса, анализ главных компонент (PCA), Индекс уровня жизни (ИУЖ), статистический анализ.

KIRISH

Aholining yashash sifatini baholash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilishda muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishda turli xalqaro indekslar, masalan, Inson rivojlanish indeksi (HDI), umumiy ko'rsatkichlar sifatida keng qo'llanilgan bo'lsa-da, ularning statik chegaralar va oldindan belgilangan teng vaznlarga asoslanishi mahalliy sharoitlarning o'ziga xosligini to'liq aks ettira olmaydi. Shu bilan birga, bunday usullar real vaqtdagi iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik o'zgarishlarni hisobga olishda yetarli darajada moslashuvchan emas.



Aholining turmush darajasini aniqroq baholashga qaratilgan harakatlar, masalan, OECDning “Better Life Index” kabi moslashuvchan yondashuvlari mavjud bo’lishiga qaramay, bu usullar ham mahalliy kontekstni to’laqonli qamrab ololmaydi. Ushbu maqolada aholining yashash sifatini o’lchash uchun “dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar” deb nomlangan yangi usul taklif etilib, u mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. O’zbekiston misolida ushbu usulning qo’llanilishi orqali uning amaliy ahamiyati ko’rsatiladi. Ushbu sohada to’g’ri hisob-kitoblar yuritish nafaqat siyosat ishlab chiqishda asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi, balki resurslarni samarali taqsimlash va aholining real ehtiyojlarini aniqlashda ham muhim rol o’ynaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholi turmush darajasini baholashda an’anaviy statistik uslublardan tashqari, murakkab ko’p indikatorli yondashuvlar va matematik modellashirish vositalari tobora keng qo’llanilmoqda. Dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli ushbu yo’nalishda aniqlik va holatga mos baholash imkonini beruvchi zamonaviy vositalardan biri sifatida ajralib turadi. Bu yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy ko’rsatkichlar o’zgaruvchanligi va ularning baholashdagi o’zaro ta’sirini inobatga olish imkonini beradi.

Aholi farovonligini baholashda Xalqaro Mehnat Tashkiloti hamda Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan indikatorlar tizimi muhim ahamiyatga ega. Xususan, Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan imkoniyatlar yondashuvi, inson kapitali va ijtimoiy inklyuziya ko’rsatkichlariga asoslanadi. U turmush darajasini baholashda oddiy daromad ko’rsatkichlaridan tashqari sog’liq, ta’lim, ijtimoiy himoya va hayot sifatini hisobga olishni taklif etadi.

Rossiyalik olim E. V. Guseva o’z tadqiqotlarida ko’rsatkichlar o’rtasidagi dinamik bog’liqlikni hisobga oluvchi normallashtirish metodikasini ishlab chiqqan. U baholash jarayonida indikatorlar o’zgaruvchanligini, mezonlar orasidagi nisbatlarning vaqt bo’yicha siljishini e’tiborga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, amerikalik tadqiqotchi M. Ravallion tomonidan ishlab chiqilgan ko’p parametrlil baholash modeli turmush darajasini baholashda moslashuvchan indekslar va har bir ko’rsatkichga vazn berish orqali ko’rsatkichlar muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv aholining real ijtimoiy holatini yanada aniqroq aks ettirishga yordam beradi.

O’zbekistonda esa M. Karimov va X. Nurmatov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aholining turmush darajasini baholashda komponentli indekslar tizimi qo’llanilib, har bir ko’rsatkich bo’yicha normallashtirish, shkalalash va vaznlash mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ular mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda turmush darajasini tizimli va holatga mos yondashuv asosida o’lchash zarurligini asoslab bergan.

Yuqoridagi manbalar asosida xulosa qilish mumkinki, turmush darajasini baholashda faqatgina statistik o’rtachalar emas, balki indikatorlar o’rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi yondashuvlar dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Usulning umumiy tasviri: Dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar. Taklif etilayotgan usul ikki asosiy qismdan iborat:

- Dinamik kontekstli normallashtirish
- Moslashuvchan vaznlar

Dinamik normallashtirish: Normallashtirish jarayoni ko’rsatkichlarni (masalan, daromad) mahalliy minimal va global maksimal chegaralar asosida moslashtiradi hamda kontekst koeffitsiyentini qo’llaydi.

Formula:

$$X_{dyn} = \frac{X_{o'rtacha} - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \cdot K_c \quad (1)$$

hisoblash: Kontekst koeffitsiyenti iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning normallashtirilgan o’rtacha qiymati sifatida aniqlanadi. Bizning tadqiqotimizda iqtisodiy barqarorlik, sog’liq xizmatlariga ega bo’lish va infratuzilma sifati kabi omillarning normallashtirilgan o’rtacha ko’rsatkichi sifatida hisoblanadi.

Moslashuvchan vaznlar. Vaznlar () Asosiy Komponentlar Tahlili (PCA) yordamida hisoblanadi. PCA 1901-yilda Karl Pirson (Karl Pearson) tomonidan taklif qilingan va keyinchalik 1930-yillarda Xarold Xotelling (Harold Hotelling) tomonidan rivojlantirilgan statistik usul bo’lib, statistika, mashinaviy o’qitish, iqtisodiyot va boshqa sohalarida keng qo’llaniladi.¹

¹ Jolliffe, I.T. Principal Component Analysis. 2-nashr. New York: Springer, 2002.



Aholi turmush darajasi indeksi (TDI) hisoblash:

$$TDI = \sum w_i \cdot X_{dyn,i} \quad (2)$$

Birinchi bosqichda ko'rsatkichlar (1) formulaga asosan dinamik kontekstli normallashtirish orqali moslashtiriladi:

Ikkinchi bosqichda vaznlar () PCA yordamida aniqlanadi, bu esa sub'ektiv baholarga emas, statistik ma'lumotlarga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

PCA ma'lumotlardagi o'zgarishlarni tahlil qilib, har bir ko'rsatkichning (daromad, ta'lim, sog'liq) TDlga ta'sirini hisoblaydi. Natijada, vaznlar sub'ektiv baholarga emas, balki statistik ma'lumotlarga asoslanadi. PCA — bu TDI uchun vaznlarni aniqlashda foydali vosita, chunki u aynan ma'lumotlar asosida qaysi ko'rsatkich muhimroq ekanligini aniqlaydi (1, 2-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida aholining turmush darajasi va mehnat bozori statistikasi (2019-2023).

Yillar	Yalpi ichki mahsulot hajmi (ishlab chiqarish usulida, joriy narxlarda)	O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi (so'm)	Qurilish (mlrd)	Ishsizlar soni (ming kishi)	Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni (ming kishi)	Ist'emol narxlari indeksi yillik dinamikasi (o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan)	Shifokorlar soni, 10 000 aholiga nisbatan
2019	594659	1946778	71156,5	1335,3	18857	115	27,1
2020	668038	2227141	88130,3	1561,0	19075	111	27,0
2021	820536	2662002	107492,7	1441,8	19237	110	27,1
2022	995573	3204301	130790,9	1332,7	19393	112	27,9
2023	1204485	3799613	150792,6	1024,1	19585	108	28,7

2-jadval. O'zbekiston Respublikasining 2019–2023-yillardagi demografik, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlari.

Yillar	Doimiy aholi soni (jami) ming kishi	1kv.km. ga to'g'ri keladigan aholi soni, (kishi)	O'rtacha umr ko'rish uzunligi	Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (ming tonna)	Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni (jami)
2019	33255	74,1	71,34	952	6168198
2020	33905	75,5	70,33	924	6287885
2021	34558	77,0	70,86	908	6304586
2022	35271	78,6	71,67	873	6461741
2023	36024	80,2	74,7	763	6645119

Yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlar yordamida TDI ko'rsatkichlarini hisoblash uchun Python dasturlash tilidan foydalaniladi. Ushbu hisob-kitoblar Google Colab platformasida (<https://colab.research.google.com/>) Python kodlari orqali amalga oshiriladi. Kodlar, hisoblash jarayoni va natijalar bilan birga havola nusxalangan bo'lib, uni Google Colab saytida ochib ko'rish imkoniyati mavjud (3-jadval).

3-jadval. Kontekst koeffitsiyenti (K_c) natijalari².

Yillar	
2019	0.352941
2020	0.324060
2021	0.398805
2022	0.589615
2023	0.666667

Kontekst koeffitsiyenti (K_c) iqtisodiy (YaIM), ijtimoiy (10 000 aholiga shifokorlar soni) va ekologik (atmosfera chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar) omillarning normallashtirilgan o'rtacha qiymati sifatida hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyent har bir yil uchun mahalliy sharoitlarning o'ziga xos holatini aks ettiradi.

Tendensiya tahlili: 2019–2020-yillar: K_c nisbatan past darajada (0.35 va 0.32) bo'lgan bo'lib, bu iqtisodiy yoki ekologik omillarning sekinlashganini ko'rsatishi mumkin. Masalan, pandemiya davrida iqtisodiy faollikning pasayishi yoki boshqa tashqi ta'sirlar bunga sabab bo'lishi ehtimoldan xoli emas. 2021–2023-yillar: K_c da sezilarli o'sish kuzatilgan (0.40, 0.59, 0.67). Bu iqtisodiy tiklanish, sog'liqni saqlash xizmatlarining yaxshilanishi (shifokorlar sonining ko'payishi) yoki ekologik holatning ijobiy o'zgarishi (ifloslanishning kamayishi) kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

K_c ning dinamik tabiati ushbu usulning statik chegaralarga asoslangan an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, real vaqtdagi sharoitlarni aks ettirishdagi ustunligini tasdiqlaydi.

X_{dyn} har bir ko'rsatkichning normallashtirilgan qiymatini K_c koeffitsiyenti bilan moslashtiradi. U 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqdagi qiymatlarni ifodalaydi va ko'rsatkichning minimal hamda maksimal darajalarga nisbatan holatini aniq ko'rsatadi. Bu jarayon mahalliy sharoitlarga moslashgan holda ko'rsatkichlarning adolatli baholanishini ta'minlaydi (4-jadval).

4-jadval. X_{dyn} natijalari³.

Yillar	YaIM	Oylik ish haqi	Qurilish	Ishsizlar		Ifloslanish	O'quvchilar
2019	0.000000	0.000000	0.000000	0.204573	...	0.352941	0.000000
2020	0.038993	0.049035	0.069071	0.324060	...	0.276051	0.081325
2021	0.038993	0.153945	0.181966	0.310264	...	0.305962	0.114049
2022	0.387627	0.400173	0.441525	0.338900	...	0.343162	0.362906
2023	0.666667	0.666667	0.666667	0.000000	...	0.000000	0.666667

Ko'rsatkichlarning normallashtirilgan tahlili (X_{dyn}):

Iqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM, oylik ish haqi, qurilish): 2019-yilda qiymat 0,00 (minimum) bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 0,67 (maksimum) ga yetdi. Bu iqtisodiy o'sishning aniq ko'rinishini aks ettiradi.

Ishsizlar soni: 2020-yilda eng yuqori daraja (0,32), 2023-yilda esa eng past daraja (0,00) qayd etildi. Ishsizlikning kamayishi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi.

Ekologik ko'rsatkich (ifloslanish): 2019-yilda 0,35 bo'lib, 2023-yilda 0,00 ga tushdi. Bu havoning ifloslanish darajasining sezilarli pasayganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar (shifokorlar, umr ko'rish davomiyligi): 2023-yilda eng yuqori qiymatlar (0,67) kuzatildi. Bu sog'liqni saqlash xizmatlari va umr ko'rish davomiyligining yaxshilanganini tasdiqlaydi (5-jadval).

2 Google Colab: "Google Colaboratory" https://colab.research.google.com/drive/1sxJJyLiB3RMPwQYF_cjqB5wd1iXu_I5e#scroll-To=CODYZvUTIA_s&line=80&uniqifier=1 ssilkani ko'chirib, google orqali google collab saytida ko'rishingiz mumkin.

3 Google Colab: "Google Colaboratory" https://colab.research.google.com/drive/1sxJJyLiB3RMPwQYF_cjqB5wd1iXu_I5e#scroll-To=CODYZvUTIA_s&line=80&uniqifier=1 ssilkani ko'chirib, google orqali google collab saytida ko'rishingiz mumkin.

5-jadval. Moslashuvchan vaznlar (W_i) natijalari⁴.

Ko'rsatkichlar	
YaIM	0.088121
Oylik ish haqi	0.087980
Qurilish	0.086819
Ishsizlar	0.071700
Mehnatga layoqatli	0.085873
Iste'mol narxlari	0.068653
Shifokorlar	0.084751
Aholi	0.086904
Aholi zichligi	0.086763
Umr ko'rish	0.077578
Ifloslanish	0.087193
O'quvchilar	0.087664

Moslashuvchan vaznlar (w_i) Asosiy komponentlar tahlili (PCA) natijasida olingan birinchi asosiy komponent (PC1) og'irliklaridan kelib chiqib normallashtirilgan (yig'indisi 1 ga teng). Bu vaznlar har bir ko'rsatkichning Turmush darajasi indeksiga (TDI) ta'sir darajasini aniqlaydi.

Eng yuqori vaznlar: YaIM (0,088), oylik ish haqi (0,088) va o'quvchilar soni (0,088). Bu iqtisodiy rivojlanish va ta'lim ko'rsatkichlarining TDI uchun muhimroq ekanligini ko'rsatadi.

Eng past vazn: iste'mol narxlari indeksi (0,069). Bu inflyatsiyaning turmush darajasiga ta'siri nisbatan kamroq bo'lganini anglatadi.

Salbiy ta'sirli ko'rsatkichlar: ishsizlar soni va ifloslanish kabi ko'rsatkichlarning PCA'dagi salbiy og'irliklari mutlaq qiymatda ishlatilgan bo'lib, ularning ta'siri ham muhim deb topilgan.

HDI'da qo'llaniladigan teng vaznlar (1/3) usulidan farqli o'laroq, moslashuvchan vaznlar statistik ma'lumotlardan kelib chiqadi va mahalliy sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ega.

Yakuniy Turmush darajasi indeksi (TDI) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$TDI = \sum w_i \cdot X_{dyn,i}$$

TDI turmush darajasini 0 dan 1 gacha baholaydi. Yuqori qiymat yaxshi hayot sifatini anglatadi (6-jadval).

6-jadval. TDI natijalari jadvali⁵.

Yillar	TDI
2019	0.077760
2020	0.099113
2021	0.165479
2022	0.369667
2023	0.514969

TDI natijalari tahlili:

- 2019-yil: 0,08 – eng past qiymat. Iqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM, ish haqi) past, ishsizlik esa yuqori bo'lgan.
- 2020-yil: 0,10 – ozgina o'sish. Pandemiya ta'siriga qaramay, qurilish hajmi va o'quvchilar sonining ko'payishi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi.

- 2021-yil: 0,17 – barqaror o'sish. Iqtisodiy tiklanish boshlanib, ko'rsatkichlar yaxshilandi.

- 2022-yil: 0,37 – keskin o'sish. YaIM, oylik ish haqi va qurilish hajmi yuqori darajaga chiqdi, ishsizlik sezilarli kamaydi.

- 2023-yil: 0,51 – eng yuqori qiymat. Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarida umumiy yaxshilanish kuzatildi.

TDI 2019–2023-yillarda O'zbekistonda turmush darajasining sezilarli yaxshilanganini tasdiqlaydi. Bu iqtisodiy o'sish, ishsizlikning kamayishi, sog'liqni saqlash va ekologik holatning yaxshilanishi bilan chambarchas bog'liq (7-jadval).

4 Google Colab: "Google Colaboratory" https://colab.research.google.com/drive/1sxJJyLiB3RMPwQYF_cjqB5wd1iXu_I5e#scroll-To=CODYZvUTIA_s&line=80&uniqifier=1 ssilkani ko'chirib, google orqali google collab saytida ko'rishingiz mumkin.

5 Google Colab: "Google Colaboratory" https://colab.research.google.com/drive/1sxJJyLiB3RMPwQYF_cjqB5wd1iXu_I5e#scroll-To=CODYZvUTIA_s&line=80&uniqifier=1 ssilkani ko'chirib, google orqali google collab saytida ko'rishingiz mumkin.

7-jadval. PCA natijalari bilan solishtirish jadvali⁶.

Yillar	PC1	PC2
2019	-3.758248	-1.574394
2020	-2.478404	0.881959
2021	-0.759445	1.025178
2022	1.491054	0.279218
2023	5.505044	-0.611961

PCA tahlili:

PC1 (88,95 % dispersiya) – iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar (YaIM, oylik ish haqi, aholi soni va boshqalar) bilan bog'liq. 2019-yilda eng past qiymat (–3,76), 2023-yilda esa eng yuqori qiymat (5,51) qayd etildi. Bu TDI o'sishi bilan to'liq mos keladi.

PC2 (7,93 % dispersiya) – ishsizlar soni, iste'mol narxlar indeksini va umr ko'rish davomiyligi kabi o'zgaruvchilar bilan aloqador. 2021-yilda eng yuqori qiymat (1,03) kuzatilib, iqtisodiy tiklanish bilan birga ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lganini ko'rsatadi.

PCA natijalari TDI tendensiyasini tasdiqlaydi: PC1 ning o'sishi TDI qiymatlarining ko'tarilishi bilan parallel ravishda kechdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilgan "Dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar" usuli O'zbekiston misolida o'z samaradorligini isbotladi:

- K_c va X_{dyn} yillik sharoitlarni (masalan, 2020-yildagi pandemiya ta'siri yoki 2023-yildagi ekologik yaxshilanishlar) hisobga oladi.

- w_i vaznlari HDI'dagi teng vaznlardan (1/3) farqli o'laroq, statistik ma'lumotlarga asoslanadi. Masalan, YaIM va o'quvchilar soni yuqori vaznga ega bo'lib, mahalliy ahamiyatni aks ettiradi.

- TDI 2019-yilda 0,08 dan 2023-yilda 0,51 ga ko'tarilib, turmush darajasining iqtisodiy o'sish, ishsizlikning kamayishi, sog'liqni saqlash va ekologiya sohasidagi yaxshilanishlar bilan birgalikda sezilarli yuksalganini ko'rsatdi.

"Dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar" usuli TDI hisoblashda yangi yondashuv sifatida mahalliy va global sharoitlarni muvaffaqiyatli birlashtiradi. O'zbekiston misolida sinovdan o'tkazilgan ushbu usul o'zining amaliy samaradorligini namoyish etdi:

- mahalliy va global kontekstning integratsiyasi, yuqori moslashuvchanlik va real vaqtdagi sharoitlarni aks ettirish qobiliyati;

- usul katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va hisoblash uchun sezilarli resurslarni talab qiladi.

Kelajakda usulni yanada takomillashtirish uchun ekologik omillarni kengaytirish va qo'shimcha ma'lumotlar bazasini jalb qilish tavsiya etiladi. Bu uning aniqligi va qo'llanilish doirasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNDP (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi). Human Development Report 1990. New York: Oxford University Press, 1990.
2. OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti). Better Life Index: Framework and Methodology. Paris: OECD Publishing, 2011.
3. Jolliffe, I.T. Principal Component Analysis. 2-nashr. New York: Springer, 2002.
4. Pearson, K. "On Lines and Planes of Closest Fit to Systems of Points in Space". Philosophical Magazine, Series 6, Vol. 2, No. 11, 1901, 559-572-betlar.
5. Hotelling, H. "Analysis of a Complex of Statistical Variables into Principal Components". Journal of Educational Psychology, Vol. 24, No. 6, 1933, 417-441-betlar.
6. World Bank. World Development Indicators. – Washington D.C.: World Bank Group, 2023.
7. UNDP. Human Development Report. – New York: United Nations Development Programme, 2021.
8. Alkire S., Foster J. Counting and Multidimensional Poverty Measurement. – Oxford: OPHI Working Paper, 2011.
9. Google Colab: "Google Colaboratory" –<https://colab.research.google.com/>

⁶ Google Colab: "Google Colaboratory" https://colab.research.google.com/drive/1sxJJyLiB3RMPwQYF_cjqB5wd1iXu_l5e#scroll-To=CODYZvUTIA_s&line=80&uniqifier=1 ssilkani ko'chirib, google orqali google collab saytida ko'rishingiz mumkin.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>